

NOSHIRLIK YO‘NALISHI TALABALARIDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Majidova Gulhayo Abdirazzoq qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO’TAU o’qituvchisi

Telefon:+998(90)0019600, majidovagulhayo96@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada noshirlik ta’lim yo‘nalishi talabalarining ijodkorligini rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlashga asoslangan o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish orqali nashriyotda ijodkorlik fazilatlarining shakllanishi masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: vizual did, talaba, ijodkorlik, mazmun, mohiyat, fikrlash.

Mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotida yuz bergen chuqr o‘zgarishlar ta’lim sohasidagi jarayonlarga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Talabalarning tafakkuri, bilim olish motivlari, atrofdagi dunyoga munosabati keskin o‘zgardi.

Nashriyotlar chiqaradigan mahsulotining turiga qarab — kitob nashriyoti, kitob-jurnal nashriyoti, gazeta-jurnal nashriyoti va qanday o‘quvchilarga mo‘ljallanganligiga ko‘ra — ilmiy adabiyot, ommaviy adabiyot, bolalar adabiyoti, o‘smirlar adabiyoti nashriyotlari va hokazoga bo‘linadi; mavzusiga ko‘ra — universal va muayyan sohaga ixtisoslashgan nashriyotlar bor. Noshirlik ishi talabalari ya’ni bo‘lajak noshirlarda ijodkorlikni rivojlantirish muhim jixatlardan biri sanaladi.

Kasbiy ijodkorlik haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalo ijodkorlikning mohiyatini tahlil qilib olish zarur. Ijodkorlik mohiyatini o‘rganish borasida inson va tabiatni o‘rganishning muhim metodologik masalalarini yechishdek vazifa qo‘yiladi. Ijodkorlikni rivojlantirish manbalari, biologic va ijtimoiy, ob’ektiv va sub’ektiv, individual va jamoa o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni bu jarayonlar o‘z ichiga qamrab oladi.

Ijod - insonning moddiy va ma’naviy ne’matlarni yaratish faoliyatidir. Ijod dastlab inson tasavvurida tug’iladi, keyin taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o’tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, gipotezalar qilinadi. Ijodkorlik esa - insonning borliqni bilish va o’zgartirishga yo’naltirilgan ongli, maqsadli faoliyati bo’lib, uning natijasida yangi, original, ilgari mavjud bo’lmagan, jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan buyumlar va boshqalar yaratiladi.

M.G.Yarashevskiy fikricha, ijodkorlik yangilik yaratish demakdir. Uni shunday tushunish kerakki, sub’ektning tasavvurlari yangilanadi va hulq atvori, u yaratgan va in’om etayotgan mahsulotlari ham yaxshilanadi.

Ijodkorlik bu qayta shakllantirish- mavjud shakl unsurlari yordamida yangi shakl yaratish demakdir. Ijodkorlikda bir shakldan ikkinchisiga o’tkazish, bu jarayonda qoidalarning yangi qolipi, chizmasi, ma’lum tuzilmalarning yangi turi yuzaga keladi. Bo’lajak noshirning kasbiy ijodkorligi haqida fikr yuritar ekanmiz, bu borada M.G.Yaroshevskiy tomonidan berilgan xulosalar diqqatga sazovor ekanligini aytish joiz.

1. Narsa va hodisalar tarkibi—evristika, narsaning yangi obrazini yaratuvchi ruhiy «mato», so’ngra u ilmiy matnga aylanadi va yangi g’oyalar, nazariyalar va kashfiyotlar sifatida yuzaga chiqadi. Bu evristikalar: analoglar, metaforalar, qiyoslash, modellardan iborat bo’lib, odatda fikrlash mazmunini tashkil etadi va visual shaklga ega bo’ladi;

2. Ijtimoiy tarkib—bunday ijodkorlik M.G.Yaroshevskiy fikriga ko’ra, kognetiv-diologik «dastlabki faolligi»sifatida ko’zga tashlanadi. Shunday qilib, opponentlar, muqobililiklar ham ijodiy jarayonlarning avj olishiga turtki beradi;

3. Shaxsga oid tarkib – shaxsiy intilish, ichki maqsadli istak va ijod sub’ektining xususiy sifatlaridan iborat bo’lib, ijodiy jarayonlarni uzluksiz tashkil etishda yuzaga chiqadigan yangi belgilar, o’zgarishlardan iborat.

Bo’lajak noshirda o’z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun quyidagi shaxsiy sifatlar zarur: ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o’z kuchiga ishonish, o’z kasb mahoratini

tinmay oshirib borish, jarayonlarni emotsiyal-qat’iylik bilan boshqara bilish, kasbiy kompetentsiyaning yuzaga chiqishi natijalari.

Xulosa qilib aytganda noshirlik ishi talabalarining kasbiy ijodkorligini rivojlantirish uchun kasbiy rivojlanishning mohiyati, mazmuni, loyihalashtirish uslublari va ahamiyati, kasbiy ijodkorlik kompetetligining mazmuni haqida ma’lumotga ega bo’lishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ярошевский М.Г. Основы теоретической психологии. - Москва-Воронеж, 1998. -С. 528. (Муаллиф томонидан таржима қилинган.)
2. Самохвалова В.И. Творчество: божественный дар, космический принцип, родовая идентичность человека. // Человек и судьба мира, 2007. -С. 538.
3. Sharipov Sh.S. Talabalar ixtirochilagini shakllantirishning pedagogic sharoiti 2001.
4. Urokova Sharofat Bahodir qizi, & Shakirova Dildora Bahadirovna. (2022). ENRICH EDUCATIONAL CONTENT THROUGH MULTIMEDIA RESOURCES USING DIGITAL TECHNOLOGIES. Conference Zone, 220–221. Retrieved from <http://conferencezone.org/index.php/cz/article/view/262>
5. Mamarajabov Odil Elmurzaevich. (2022). FORMATION OF STUDENTS’ COMPETENCE IN THE USE OF CLOUD TECHNOLOGIES IN THE INFORMATION EDUCATIONAL ENVIRONMENT. World Bulletin of Social Sciences, 8, 79-80. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/726>